

## OLIV TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MUAMMOLAR VA SAMARADORLIK OMILLARI

*Xasanov Akrom Anvarovich,*

*Samarqand davlat pedagogikainstituti dotsenti.*

*Norova Aziza Alisherovna,*

*Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi*

*Annotatsiya.* Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor g'oyalar va zamonaviy metodlarning ta'lim sifatiga ta'siri yoritiladi. Oliy ta'lim tizimida kuzatilayotgan sustkashlik va rivojlanish jarayonlari qiyosiy o'rganilib, ularga ta'sir etuvchi omillar tahlil ostiga olinadi. Tadqiqot natijasida innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti ekanligi asoslab beriladi.

*Kalit so'zlar:* Oliy ta'lim, raqamli texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, ta'lim sifati, muammolar va echimlar, zamonaviy metodlar, rivojlanish jarayoni, sustkashlik.

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM: PROBLEMS AND EFFICIENCY FACTORS

*Akrom Anvarovich Khasanov,*

*associate professor, Samarkand State Pedagogical Institute.*

*Aziza Alisherovna Norova,*

*student of Samarkand State Pedagogical Institute*

*Abstract.* This study analyzes the use of digital and innovative technologies in the higher education system, existing problems, and possible ways to solve them. It also

*examines key ideas and modern teaching methods that contribute to improving the effectiveness and quality of education. The processes of stagnation and development observed in higher education are comparatively studied, and the factors influencing them are analyzed. The results of the research show that the effective implementation of innovative technologies is an important condition for improving the quality of education.*

**Keywords:** *Higher education, digital technologies, innovative technologies, educational effectiveness, quality of education, problems and solutions, modern methods, development process, stagnation.*

## **ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

***Хасанов Акром Анварович,***

*доцент Самаркандского государственного педагогического института.*

***Норова Азиза Алишеровна,***

*студентка Самаркандского государственного педагогического института*

**Аннотация.** *В данном исследовании анализируется использование цифровых и инновационных технологий в системе высшего образования, существующие проблемы и возможные пути их решения. Также рассматриваются ключевые идеи и современные педагогические методы, способствующие повышению эффективности и качества образования. Процессы застойности и развития, наблюдаемые в системе высшего образования, изучаются сравнительно, а факторы, влияющие на них, подвергаются анализу. Результаты исследования показывают, что эффективное внедрение инновационных технологий является важным условием повышения качества образования.*

*Ключевые слова: высшее образование, цифровые технологии, инновационные технологии, эффективность обучения, качество образования, проблемы и решения, современные методы, процесс развития, застой.*

**Kirish qismi.** Davlatimiz oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha izchil siyosat olib bormoqda. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari va maktablar zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan jihozlanmoqda, bu esa ta'lim jarayonini samarali va sifatli qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar yordamida talabalar zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashib, bilimlarini mustaqil, oson va tez rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari nazarda tutilgan.

**Asosiy qism.** Ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishi – bu nafaqat texnik vositalarni joriy etish, balki o'qitish metodologiyasining, o'quv materiallarini etkazish uslublarining, baholash mexanizmlarining va pedagogik kommunikatsiya shakllarining yangilanishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, innovatsion texnologiyalar deganda, ta'limda sun'iy intellekt, kengaytirilgan va aralash reallik, masofaviy va gibridd o'quv platformalari, adaptiv o'quv tizimlari, o'yinlashtirish (gamifikatsiya), kognitiv modellar asosidagi elektron resurslar kabi ilg'or echimlar tushuniladi [1].

Bugungi kunda ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati bir necha omillar bilan belgilanmoqda. Ulardan birinchisi – zamonaviy talabalar avlodining raqamli kompetensiyalar asosida shakllanayotgan bilim olish uslubiga moslashuv zarurati; ikkinchisi – global pandemiya tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarining barqaror va uzluksiz faoliyatini ta'minlovchi raqamli infrastrukturaga bo'lgan ehtiyoj; shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati [2].

Innovatsion texnologiyalarning oliy ta'lim tizimiga joriy etilishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilsa-da, bu jarayon muayyan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Avvalo, chekka hududlarda texnik infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Internet tezligining pastligi hamda zamonaviy kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar etishmasligi masofaviy va raqamli ta'limni to'liq yo'lga qo'yishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ayrim professor-o'qituvchilarda raqamli kompetensiyaning etarli emasligi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Elektron platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari va interaktiv metodlardan foydalanish uchun zarur ko'nikmalarning etishmasligi dars jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Shuningdek, ba'zi o'qituvchilarning an'anaviy ma'ruza uslubidan voz kecha olmasligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Talaba markazli, interaktiv va innovatsion yondashuvlarga o'tish ma'lum darajada metodik va psixologik tayyorgarlikni talab etadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida chekka hududlarda internet infratuzilmasini barqarorlashtirish hamda oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash zarur. Shu bilan birga, an'anaviy ta'lim modelidan bosqichma-bosqich innovatsion yondashuvlarga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarning samaradorligini aniq natijalar va tahlillar asosida namoyon etish ularning keng joriy etilishiga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi oliy ta'lim jarayonining sifati va natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Avvalo, raqamli texnologiyalar talabalar uchun mustaqil va erkin ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi. Ushbu innovatsion qurilmalar va platformalar yoshlar uchun turli xil qulayliklar yaratadi. Shulardan biri — masofaviy ta'limdir. Mazkur ta'lim shakli orqali talabalar istalgan joyda va vaqtda, shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, bilim olishlari mumkin.

Zamonaviy infratuzilmalar nafaqat talabalar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham keng ko'lamli qulayliklar yaratadi. Endilikda ular o'z talabalarini samarali nazorat qilish, shuningdek, yangicha metodlar orqali fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni mustahkamlashga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini takomillashtirish, yangi metodlarni joriy etish va pedagogik samaradorlikni oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayoniga yangilik olib kirib, o'qituvchilarning o'z bilimlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishlarini qo'llab-quvvatlaydi. Misol uchun, ta'limda

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) modeli qo'llanilishi o'quvchilarda analitik fikrlash va ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi [1].

**Xulosa qismi.** Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim muhitida interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yoshlarni xalqaro darajada raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashga yordam beradi hamda ularni malakali va muvaffaqiyatli mutaxassislar etib shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz" degan edi. [3]

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Egamberdiyev, O. A. (2025). Ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14635526>.
2. Jurayev, A. X. (2025). Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 5(5), 77. <https://www.oriens.uz>
3. <https://sputniknews.uz/> (<https://sputniknews.uz/20240320/markaziy-bank-mgimo-universitet-toshkent-memorandum-43058978.html>)